

## **PROFILAKTIKA INSPEKTORINING ALOHIDA KO`MAKKA MUHTOJ SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINING AHAMIYATI VA MAZMUNI**

**Ismatov Asadbek Marat o`g`li**

*IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti, safdor*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola orqali siz, profilaktika inspektorining alohida ko`makka muhtoj shaxslar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi, profilaktika inspektorining alohida ko`makka muhtoj shaxslar bilan ishlash faoliyatining asosiy xususiyatlari, profilaktika inspektorining alohida ko`makka muhtoj shaxslar bilan ishlash faoliyatining tashkiliy-xuquqiy jihatlari, profilaktika inspektorining alohida ko`makka muhtoj shaxslar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirish, profilaktika inspektorining alohida ko`makka muhtoj shaxslar bilan ishlash bo`yicha ilg`or xorij tajribasini o`rganish tahlili, profilaktika inspektorining alohida ko`makka muhtoj shaxslar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo`nalishlari haqida bilib olishingiz mumkin.*

**Kalit so`zlar:** *profilaktika, alohida ko`makka muhtoj shaxslar, kam ta`minlangan oila, yoshlar daftari, temir daftar, ayollar daftari, nogironligi bo`lgan shaxslar.*

## **ЗНАЧЕНИЕ И СОДЕРЖАНИЕ РАБОТЫ ИНСПЕКТОРА ПО ПРОФИЛАКТИКЕ С ЛЮДЬМИ, НУЖДАЮЩИМСЯ В СПЕЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ**

**Аннотация:** *Из данной статьи вы ознакомитесь с понятием работы инспектора по профилактике с лицами, нуждающимися в особой помощи, основными особенностями работы инспектора по профилактике с лицами, нуждающимися в особой помощи, организационно-правовыми аспектами работы инспектора по профилактике с лицами, нуждающимися в особой помощи. помощь, работа инспектора по профилактике с лицами, нуждающимися в специальной помощи, можно узнать о совершенствовании деятельности по работе с лицами, нуждающимися в специальной помощи, анализ передового зарубежного опыта работы инспекторов по профилактике с лицами, нуждающимися в специальной помощи, основные направления совершенствование деятельности профилактических инспекторов по работе с лицами, нуждающимися в особой помощи.*

**Ключевые слова:** *профилактика, лица, нуждающиеся в специальной помощи, малообеспеченная семья, регистр молодежи, железный регистр, регистр женщин, инвалиды.*

## **THE SIGNIFICANCE AND CONTENT OF THE PROPHYLAXIS INSPECTOR'S WORK WITH PEOPLE IN NEED OF SPECIAL HELP**

**Annotation:** *Through this article, you will learn the concept of prevention inspector's work with persons in need of special assistance, the main features of prevention inspector's work with persons in need of special assistance, organizational and legal aspects of prevention inspector's work with persons in need of special assistance, prevention inspector's work with persons in need of special assistance. you can learn about improving activities of working with persons in need of special assistance, analysis of advanced foreign experience of preventive inspectors in working with persons in need of special assistance, main directions of improving activities of preventive inspectors in working with persons in need of special assistance.*

**Key words:** *prevention, persons in need of special assistance, low-income family, register of youth, iron register, register of women, persons with disabilities.*

*Profilaktika inspektorining alohida ko`makka muhtoj shaxslar ishlash faoliyati deganda* – ijtimoiy jixatdan moddiy taminotga muxtoj bo`lgan ma`lum ish joiga ega bo`lmagan moddiy taminotga muxtoj, oylik daromadi oila azolarining xar biriga yeng kam oylikish xaqining 52,7 % dan kam miqdorda to`g`ri kelgan oilalar tushiniladi. Alohida ko`makka muhtoj shaxslar deb topish uchun oylik daromadi taqsimlangandagi ulishi oila a`zolarining har biriga eng kam oylik ish xaqining 52,7 % dan kam miqdorda to`g`ri kelishi kerak. Bundan tashqari oilada yagona boquvchi bo`lishi ham lozim. Alohida ko`makka muhtoj shaxslar deb bir so`z bilan aytadigan bo`lsam, har tomonlama ijtimoiy, moddiy, va tibbiy taminotga muhtoj bo`lgan ehtiyojmand shaxslar tushuniladi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 11.08.2021 yilda qabul qilingan *“Kam ta`minlangan oilalarga moddiy yordam ko`rsatish hamda kambag`allik bilan kurashish ko`lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”*gi qaroriga muvofiq quyidagilar belgilandi.

Bola tarbiyalayotgan oilalarni qo`llab-quvvatlash tizimining samaradorligini oshirish, ijtimoiy himoya va ko`makka muhtoj oilalar moddiy ta`minotini kuchaytirish, ehtiyojmand oilalarni aniqlashda umume`tirof etilgan xalqaro standartlarni va avtomatlashgan shaffof elektron baholash mexanizmlarini joriy etish orqali nafaqalarni to`lash tizimini bolalar salohiyatini rivojlantirish va kambag`allikni qisqartirishga qaratish maqsadida:

Qarorga muvofiq quyidagicha tartib o`rnatildi, unga muvofiq 2021 yil 1 sentyabrdan boshlab:

14 yoshgacha bolalari bo`lgan oilalarga nafaqa hamda bola 2 yoshga to`lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi o`rniga kam ta`minlangan oilalarga bolalar nafaqasi (keyingi o`rinlarda — bolalar nafaqasi) joriy etiladi. Bunda, bolalar nafaqasini tayinlashda:

Inobatga olinadigan bolalar yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshiriladi;

To`lov muddati 6 oydan 12 oygacha oshiriladi;

Uning miqdorini oiladagi bolalar sonidan kelib chiqib belgilash tartibi qo'llanilishi belgilab qo'yilgan;

Yakka-yolg'iz bo'lgan fuqarolarga, farzandi bo'lmagan yoki barcha farzandlari 18 yoshdan katta bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanadi.

2021 yil 1 sentyabrdan boshlab bolalar nafaqasi va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam to'lovlarining quyidagi miqdorlari belgilandi:

Bolalar nafaqasining har oylik miqdori:

250 000 so'm — 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bitta farzandi uchun,

325 000 so'm — yoshi 3 yoshgacha bo'lgan bitta kichik farzandi uchun;

150 000 so'm — oilaning ikkinchi farzandi uchun qo'shimcha;

100 000 so'mdan — oilaning uchinchi va undan keyingi har bir farzandi uchun;

kam ta'minlangan oilalar uchun moddiy yordamning oylik miqdori — 380 000 so'm.

Bunda, 2021 yil 1 sentyabrga qadar tayinlangan 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa, bola 2 yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi hamda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni to'lash muddatlari tugaguniga qadar, mazkur turdagi nafaqalar va moddiy yordamning amaldagi miqdorlari hamda ularni to'lash muddatlari saqlab qolinadi<sup>1</sup>.

#### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Moliya vazirligi 2021 yil yakuniga qadar bolalar nafaqasi va moddiy yordam oluvchi kam ta'minlangan oilalar sonining o'rtacha 20 foizga oshishini hisobga olgan holda 2021 yilda ushbu chora-tadbirlarni moliyalashtirishga byudjetdan qo'shimcha mablag' ajratsin hamda Davlat byudjetining 2022 yildagi parametrlarini shakllantirishda mazkur Farmonning amalga oshirilishi bilan bog'liq xarajatlarni nazarda tutadi.

Shunday tartib o'rnatildi, unga muvofiq 2021 yil 1 oktyabrdan boshlab, «**Ijtimoiy himoya yagona reestri**» axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalar va shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar manfaatdor vazirlik va idoralarga «Elektron hukumat» tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali taqdim etiladi.

Moliya vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, bilan birgalikda «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi ma'lumotlar bazasidagi kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalar va shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni vazirlik va idoralarga «Elektron hukumat» tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali taqdim etilishi hamda axborot almashinuvining samarali ishlashini ta'minlaydi.

Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda 2021 yil 20 avgustga qadar quyidagilarni nazarda tutuvchi Hukumat qarori loyihalarini Vazirlar Mahkamasiga kiritadi:

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6196-sonli farmoni.

Kam ta'minlangan bolali oilalarga nafaqani hamda kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordamni tayinlash va to'lash tartibi;

Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibi.

Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ushbu Farmon maqsadi, vazifalari va bundan kutilayotgan natijalarni ommaviy axborot vositalari, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish ishlarini tashkil qiladi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga 2021 yil 1 noyabr va 2022 yil 1 aprelga qadar axborot berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 16 iyundagi «Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordami tizimini takomillashtirish to'g'risida» PF-871-son Farmonida:

«Bola ikki yoshga yetguncha uni parvarishlash uchun ishlaydigan (byudjet tashkilotlarida ishlaydiganlar bundan mustasno) onalarga beriladigan har oylik nafaqalar — korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag'lari».

Bunda, 2021 yil 1 sentyabrdan boshlab bola ikki yoshga to'lgunga qadar uni parvarishlash uchun ishlaydigan (byudjet tashkilotlarida ishlaydiganlar bundan mustasno) onalarga beriladigan har oylik nafaqalar miqdori mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 60 foizi miqdorida belgilandi»;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 26 fevraldagi PF-3214-son Farmoni bilan tasdiqlangan barcha respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslar ro'yxatining 9-bandi quyidagi tahrirda bayon etilgan:

«Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalarning a'zolari».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 martdagi «Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida» PF-3864-son Farmonida Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy ximoya qilish bo'yicha ko'lamli dasturlar yoritilgan.

«O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2021 yil 1 sentyabrga qadar «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimini Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda «Manzil» tizimiga integratsiya qildi».

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-son Farmoni 15-ilovasi 9-pozitsiyasi quyida bayon etilgan:

2021 yil 28 aprelda "Moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"

Vazirlar Maxkamachining 250-sonli qarori qabul qilingan unga ko'ra "Temir daftar" elektron bazasi tashkil etildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda aholi, shu jumladan, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'lmagan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan manzilli ko'maklashish bo'yicha mutlaqo yangicha tizim joriy qilindi<sup>2</sup>.

Xususan, koronavirus pandemiyasining aholi turmush darajasiga salbiy ta'sirini yumshatish, aholini ijtimoiy himoya qilish va ko'makka muhtoj oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu yo'nalishda manzilli, har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha mutlaqo yangi — «Temir daftar», ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishli «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari» tizimlari hayotga tatbiq etildi<sup>3</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarliklarida 2021 yil 26 fevralda xotin-qizlar muammolarini hal etish, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda davlat organlarining mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan kengaytirilgan videosektor yig'ilishida aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning hayot va turmush sharoitidagi muammolarini aniqlash, yakka tartibda ishlash orqali ularning hayot tarzini yaxshilash hamda ijtimoiy faolligini oshirish, shuningdek, aniqlangan muammolarni kompleks va manzilli hal qilish, mutasaddilarning hisobdorligi va faoliyatini baholash tartibini belgilash yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qilgan:

Vazirlar Mahkamasining «Mahallabay» ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2021 yil 19 martdagi 152-son qarori bilan «mahallabay» ishlash tizimi joriy etilganligi ma'lumot uchun qabul qilingan<sup>4</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari va maslahatchilari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik birlashmalari rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlari, sektorlar rahbarlari ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar muammolari bo'yicha «Temir daftar»ga, ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'lmagan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida" gi 2021 yil 2 apreldagi PQ 5050 sonli qarori

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF 5005 son Farmoni.

<sup>4</sup> Vazirlar Mahkamasining «Mahallabay» ishlash tizimini amaliyotga joriy etish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2021 yil 19 martdagi 152-son qarori

tegishli «Ayollar daftari» va «Yoshlar daftari»ga kiritilgan fuqarolarni kambag'allikdan chiqarish va ularning farovonligini oshirish uchun shaxsan mas'ul etib belgilandi.

Quyidagilar:

«Temir daftar»ni yuritish orqali ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha vaqtinchalik tartib;

«Yoshlar daftari»ni yuritish orqali yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha vaqtinchalik tartib tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ushbu qarorga 1va 3-ilovalarda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi asosiy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratishi belgilandi :

«Temir daftar»ga kiritilgan fuqarolar bo'yicha:

-bandlikni ta'minlash;

-tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko'maklashish;

-tadbirkorlikka jalb qilish;

-moddiy yordam hamda tibbiy xizmat ko'rsatish;

«Yoshlar daftari»ga kiritilgan fuqarolar bo'yicha:

-kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish;

-bandlikni ta'minlash;

-tadbirkorlikka jalb qilish;

-xoriyda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini tashkil etish;

Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarining mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida yillik o'qish xarajatlarini to'lab berish, tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish.

Jamiyatda ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka chuqur tushuntirish choralari ko'rsin, shuningdek, «Temir daftar» bilan ishlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari, Yoshlar ishlari agentligi, tegishli vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda:

«Yoshlar daftari»ni yuritish hamda unga kiritiladigan yoshlar bilan ishlash bo'yicha tartibni, hisobot berish va ma'lumotlarni taqdim qilish shaklini amaliyotga joriy etish;

«Ayollar daftari»ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlash, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir, ishsiz hamda zo'ravonlikka uchragan ayollar muammolarini aniqlash va hal qilish bo'yicha mas'ul idora va rahbarlarning natijaga yo'naltirilgan faoliyati yo'lga qo'yilishi va muvofiqlashtirilishi; Jamiyatda yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka, yoshlarga tushuntirish, shuningdek, «Yoshlar daftari» bilan ishlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirib borish choralari ko'rish belgilangan.

### XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentdi Shavkat Mirziyoyev: «**Biz "Adolat – qonun ustuvorligida"** degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz. Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorlarining ish samarasi va ma'suliyatini oshirish, ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralari ko'rishimiz darkor» deb ta'kidlab o'tdi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki 2021 yil 29 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat havfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF 27-son farmonida ta'kidlanganidek profilaktika inspektorlarini ularning vazifa va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan tadbirlarga jalb qilish hamda faoliyatiga asossiz aralashish taqiqlanadi deb aytilganini keltirishimiz mumkin<sup>5</sup>.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ichki ishlar organlarining zimmasiga ma'suliyatli vazifalar belgilash orqali ularning faoliyati muhim ahamiyat kasb etishini belgilab berdi. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini samarali tashkil etishda profilaktika xizmatlari bilan bir qatorda boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining ham roli alohida ahamiyatga ega.

Xususan, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatlarining tergov, tezkor-qidiruv, ekspert-kriminalistika, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, yo'l harakati xavfsizligi xizmat faoliyatini psixologik ta'minlash va boshqa xizmatlar bilan muntazam hamkorlikda faoliyat yuritishi talab etiladi. O'z navbatida bir xizmat ikkinchi xizmatning yordamisiz belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlashi imkoniyati chegaralangan. Shu boisdan, ichki ishlar organlarining fuqarolik jamiyati institutlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha hamkorligini tashkil etish va ularni muntazam takomillashtirib borishning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Ammo, huquqbuzarliklar profilaktikasida fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorligini tashkil etish jarayonida quyidagi muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etmasdan turib, kerakli natijalarga erishib bo'lmaydi:

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat havfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF 27-son farmoni

birinchidan, profilaktika inspektorlari va fermer xo'jaliklari bilan o'zaro hamkorligini tashkil etishni belgilab beruvchi IIVning normativ-hujjatining qabul qilinmaganligi;

ikkinchidan, ichki ishlar organlari fermer xo'jaliklarining o'zaro hamkorligini tashkil etishning na'munaviy rejasining ishlab chiqilmaganligi;

uchinchidan, ichki ishlar organlarida faoliyatni hamkorlikda amalga oshirishga yetarli darajada ahamiyat berilmasligi;

to'rtinchidan, ma'muriy hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda asosiy sub'ekt hisoblangan profilaktika inspektorlarining hududda fermer xo'jaliklarining hamkorligini tashkil etishdagi aniq vakolatlari normativ hujjatlarda aniq belgilab berilmaganligi;

beshinchidan, profilaktika inspektorlari va fermer xo'jaliklari vakillarining birgalikda faoliyat olib boishi uchun tashkiliy va moddiy jihatdan yetarlicha ta'minlanmaganligi;

oltinchidan, profilaktika inspektorlari faoliyatida fermer xo'jaliklari bilan hamkorlikning asosiy vazifa sifatida belgilanmaganligi;

yettinchidan, profilaktika inspektorlari va fermer xo'jaliklari ning hamkorligini tashkil etishning aniq usul, shakl va mexanizmlari ishlab chiqilmaganligi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda huquqbuzarliklar profilaktikasida ichki ishlar organlari fermer xo'jaliklarining hamkorligini samarali tashkil etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman:

1. Profilaktika inspektorlari va fermer xo'jaliklarining o'zaro hamkorligini tashkil etishni belgilab beruvchi IIVning buyrug'ini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

2. Profilaktika inspektorlari va fermer xo'jaliklarining o'zaro hamkorligini tashkil etishning namunaviy rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

3. Ichki ishlar organlari va fermer xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlikdagi ishlarni eng muhim vazifalardan biri etib belgilash;

4. Ma'muriy hududda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha fermer xo'jaliklarining o'zaro hamkorligini tashkil etishda profilaktika inspektorlarining vakolatini kengaytirish va bu borada tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilash;

5. Profilaktika inspektorlarining fermer xo'jaliklari bilan hamkorligini tartibga soluvchi, ular o'rtasidagi hamkorlikni amalga oshirishning usul, shakl va mexanizmlarini, shuningdek, oxirgi islohotlar bilan to'ldirilgan qonun hujjatlarda belgilab beruvchi o'quv-amaliy qo'llanmalarni tayyorlash va o'qitish tizimini yo'lga qo'yish;

6. Ichki ishlar idoralarining xizmatlari o'rtasida jinoyatlar va ularning oldini olishga doir axborot va ma'lumotlarni zudlik bilan yetkazish tizimining samarali ishlashini ta'minlash,



7. O'zaro hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar natijasidan taraflarning baravariga manfaatdorligi va javobgaligini ta'minlash.

8. Profilaktika inspektorlarining fermer xo'jaliklarining hamkorlik yuzasidan tez va samarali muloqotini ta'minlash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda fermer xo'jaliklarining o'zaro hamkorligini tashkil etish qonun va qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi. Xususan, yuqorida keltirib o'tilgan ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini hududlarda faoliyat yuritadigan fermer xo'jaliklarining o'zaro hamkorligi kelishilgan rejalar yoki zarurat tufayli to'g'ridan to'g'ri amalga oshiriladi. Ularning hamkorligi shakliga ko'ra axborot almashuv va amaliy shakllarga bo'linadi. Ana shuni inobatga olgan holda xodimlarning o'zaro axborot almashishlari Ichki ishlar organlarining fermer xo'jaliklarining o'zaro hamkorligini tashkil etishda tayanch punktlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 6196-sonli farmoni.

2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 5005 son Farmoni.

3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2833 sonli qarori.

4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bulinmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2896 sonli qarori.